

SHOYIM BO‘TAYEVNING “QORA TUMAN” HIKOYASI POETIKASI

Dilorom ABDULLAYEVA,

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti magistranti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15878249>

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy o‘zbek adabiyotining o‘ziga xos ovozig va soziga ega Shoyim Bo‘tayevning ijodi haqida so‘z boradi. Yozuvchining “Qora tuman” hikoyasi badiiy poetik jihatdan va adabiyotshunoslik metodologiyasining dolzarb muammolari yuzasidan tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: badiiy poetika, adabiyotshunoslik metodologiyasi, psixologizm, strukturalizm

Annotatsion: This article discusses the work of Shoyim Butayev, who has a unique voice and words in modern Uzbek literature. The writer's story "Black Fog" is analyzed from an artistic and poetic perspective and in terms of current problems of literary criticism methodology.

Key words: Artistic poetics, methodology of literary studies, psychology, structuralism.

Аннотация: В статье рассматривается творчество Шойима Ботаева, обладающего уникальным голосом и словом в современной узбекской литературе. Рассказ писателя «Черный туман» анализируется с художественно-поэтической точки зрения и в свете актуальных проблем методологии литературоведения.

Ключевое слова: Художественная поэтика, методология литературоведения, психологизм, структурализм

Adabiyot – insoniyat tafakkurining eng oliy kashfiyotlaridan biri. U so‘z orqali yaratiladigan san‘at turidir. Unda hayot, inson, uning orzu-umidlari, quvonch va g‘am-alamlari badiiy obrazlar orqali tasvirlanadi. Shu bois, adabiyot bejizga “so‘z san‘ati” deb atalmaydi.

San‘atning boshqa turlari – musiqa, rassomlik, haykaltaroshlik singari adabiyot ham qalb tilida so‘zlaydi, lekin uning asosi – so‘zdir. Yozuvchi yoki shoir so‘zlar vositasida badiiy obrazlar yaratadi, o‘quvchining tasavvurini harakatga keltiradi, qalbiga ta‘sir o‘tkazadi.

Adabiyotning eng muhim vazifasi – insonni tarbiyalash, unga go‘zallikni, ezgulikni, mehr-oqibatni singdirishdir. Adabiyot orqali biz tarixni, xalq ruhiyatini, madaniyatini, milliy qadriyatlarni anglaymiz.

Adabiyot nafaqat bilim manbai, balki ruhiy oziq, go‘zallikni ko‘ra bilish san‘ati hamdir. Bu san‘at turi inson qalbini sayqallaydi, uni teranroq o‘ylashga undaydi. Shuning uchun badiiy adabiyotni to‘g‘ri anglash, uni to‘g‘ri tahlil qilish doim muhim va dolzarb masala bo‘lib kelgan. Badiiy adabiyotni to‘g‘ri talqin qilishga olib boradigan muhim vositalarida biri adabiyotshunoslik metodlariga murojaat qilishdir.

“TURKIY XALQLAR ADABIYOTIGA DOIR ZAMONAVIY YONDASHUVLAR: MUAMMOLAR, OMILLAR, YECHIMLAR”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

Adabiyotshunoslik metodologiyasi “... o‘tmish va hozirgi zamon adabiyotini o‘rganishning tamoyillari va ilmiy usullari ustida bahs yuritadi”.¹ Metodologiya bir qancha metodlarni o‘z ichiga oladi. Metod – grekcha so‘zdan olingan bo‘lib, “biron narsaga borish yo‘li”, “tadqiq usuli” degan ma‘nolarni anglatadi. Qisqicha qilib aytganda, metod maqsadga erishish uchun kerak bo‘ldigan vosita. Adabiyotshunoslikda bir qancha muhim metodlar bo‘lib, ularning har biri badiiy asarni tahlil qilishda tanqidchiga yaqindan yordam beradi. Masalan, Y. Borev adabiyotshunoslik metodologiyasidagi yondashuvlarni quyidagicha tasniflaydi:

- 1.Sotsiologik yondashuv
- 2.Geneseologik yondashuv
- 3.Tarixiy-madaniy yondashuv
- 4.Biografik yondashuv
- 6.Ijodiy-genetik yondashuv
- 7.Ontologik yondashuv.

Yuqorida keltirib o‘tilgan metodologik birliklarning har biri katta ahamiyatga ega. Bugungi kunga kelib metodlarning soni yuzga yaqin. Ular asarning badiiy mohiyati, shakli, yozuvchining ruhiyati va shu bilan birga kitobxon ruhiyatiga qarab o‘zgarib boraveradi.

Yozuvchi Shoyim Bo‘tayeov ijodiga mansub hikoyalar bugungi zamon kitobxonlariga boshqa qator yozuvchilarning asarlari singari boy ma‘naviy ozuqa bera oladi. Adibning hikoyalarini metodologik jihatdan tahlil qilish keng jamoatchilikka taqdim etishga bir vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Ijodkorning “*Qora tuman*” nomli hikoyasi o‘zining qiziqarli syujeti, badiiy timsollarga boy ekanligi bilan e‘tiborimizni tortadi. Yozuvchining nodir asarini adabiyotshunoslik metodologiyasidagi psixologik va struktural tahlil yo‘nalishlari orqali tahlil qilish, uning bosh g‘oyasini yanada oydinlashtiradi. Hikoyada Xolbo‘taning ayanchli taqdiri haqida so‘z boradi. Uning vatanidan, oilasidan yiroqda xor-u zor nobud bo‘lishi kitobxonni savollar girdobiga tashlaydi. Asar “*Subhi kozibda qanal g‘a-multajolarini tark etib bemavrid maskan-tumanli tog‘ sari yo‘l olishgan besh nafar otliq-guruhning boshida qovog‘idan qor yog‘ib Xolbo‘ta borardi...*”² deya boshlanadi. E‘tibor bersak, subhi kozib – tong yorishmasidan oldin paydo bo‘ladigan vertikal yorug‘lik. Lekin, kozib so‘zi alohida olib qaralganda – soxta, yolg‘on degan ma‘nolarni anglatadi. Hikoya ilk satrlardan oq nimani kuylamoqchi ekanligini aytib turibdi. Asarning bosh qahramoni Xolbo‘ta umrining so‘nggi kumlarida aynan “subhi kozib”da ya‘ni, yolg‘on girdobi ichida yashagan

¹ B.Karimov Adabiyotshunoslik metodologiyasi – Toshkent:2011 B.5

² Bo‘tayeov Sh. “Shohona sovg‘a” qissa va hikoyalar to‘plami. Toshkent – 2023. B-82

qurbonlardan biri edi. Hikoyaning ramziy timsoli o‘z nomi bilan “qora tuman”. Bizda o‘z o‘zidan savol tug‘iladi. Nima uchun tuman? Va nima uchun aynan qora tuman? Bu savollarga javobni hikoyani o‘qish davomida topish mumkin.

“Qora tuman” ramziy ma’no sifatida, ham tabiat hodisasi, ham mavjud ijtimoiy tuzum va, albatta, bosh obrazning psixologik ahvoli sifatida ahamiyatga ega. Avvalo, tabiatda qora tuman yerdagi iliqlikning sovushi, namlikning muzlashi natijasida hosil bo‘ladi. Ammo, “qora tuman” jumlasini hikoyada bir necha marota qayta-qayta takrorlanadi, har bir o‘rinda o‘ziga xos psixologik ruhiy ifoda kasb etadi. “*Hozir ko‘zlari qizarib-shishgan, betinim o‘ylayotganidan peshonasi g‘ijimlanib-tirishib ketgan, ko‘rayotgan narsasi – qora, qop-qora tuman omad undan yuz o‘g‘irganidan nishon berardi*”.³ Ushbu parchada adib qahramonning ichki olamini ifodalab, uning hayotiga bu qadar kuchli tahdid sola olgan “qora tuman” aslida kim ekanligini bila olmay, ko‘z oldini qora tuman qoplagan obrazni tasvirlaydi. Eng yaqin insonim degan kishilari undan yuz o‘girishi, mavqeyi, obro‘-e’tibori bor paytida uyining to‘riga olib chiqib ziyofat qilganlarning ayni damda Xolbo‘taga bir og‘iz so‘z demay undan voz kechishi tasviri ham aynan qora tuman orqali ifoda etiladi.

Bundan tashqari hikoyadagi qoya va xarsang tosh ham o‘zgacha majoziy ma’noni ifoda etadi. Turfa xayollar bilan mog‘orlagan xarsang tosh ustiga o‘tirgan Xolbo‘ta, ming afsuslar bilan aynan shu xarsang toshda jon taslim qiladi. Mohirona tasvir etilgan bu voqea kishining e’tiborini o‘ziga tortadi. Asarda kichik bir rivoyat ham keltiriladi. Unga ko‘ra, *Iskandar Zulqarnayn o‘layotib, onasiga, sog‘insangiz qabrim tepasiga borib, uch marta Iskandar deb chaqirsangiz, chiqaman, degan ekan.*

Uni dafn etishibdi. Uch kun o‘tgach, sog‘inib o‘g‘lining qabri tepasiga boribdi, chaqiqirbdi:

- Iskandar!

Sas yo‘q.

Yana chaqiribdi:

- Iskandar!!!

Hech kim chiqmabdi.

Sog‘inchdan yuragi so‘zon ona, yo‘llari qora bo‘lgan ona, sochlari qirovga aylangan ona to‘rtinchi marta, umid bilan, o‘g‘lining laqabini ham qo‘shib chaqiribdi:

- Iskandar Zulqarnayn!

Iskandar Zulqarnayn qabrdan chiqib kelibdi. Ona uni suyibdi, bolam debdi, otingni aytib bir marta chaqirdim, chiqmading, debdi, ikki marta otingni aytib zorlandim, chiqmading, debdi, uch marta otingni aytib oh chekdim, chiqmading,

³ Bo‘tayev Sh. “Shohona sovg‘a” qissa va hikoyalar to‘plami. Toshkent – 2023. B-83

debdi. Umid uzib, oxirgi marta, laqabingni ham qo‘shib chaqirganimdagina huzurimda paydo bo‘lding, uch marta chaqirganimda eshitmay qoldingmi, debdi.

Eshitdim ona, debdi Iskandar Zulqarnayn, yer ostida men kabi Iskandarlarning minglabi yotgan ekan, avvalgi: uch marta chaqirganimda qay birimiz ekan, deb hayron bo‘luvdi, laqabimni qo‘shib chaqirganimda sening kelganingni bilib, chiqdim, debdi.⁴ hikoyadan o‘rin olgan ushbu parcha bevosita Xolbo‘taning ruhiy holatini aks ettirgan. Avvalo, bu dunyoda yashab o‘tgan har bir inson o‘zgacha, bir birini takrorlamaydi. Qolaversa insonlarning qalbdagi o‘rni ularning ismi yoki oddiy laqabi bilan emas, hayotda qanday iz qoldirgani bilan belgilanadi.

Badiiy asarni tahlil qilish jarayonida yana bir muhim vositalardan biri shundaki, bu qahramonlarning so‘zlashuv nutqi ya’ni dialoglaridir. So‘zlashuv bosh obrazning boshqa qahramonlar bilan munosabatini bilishda ham qo‘l keladi. Masalan, Saidmurod ismli obraz hikoya boshidan buyon Xolbo‘ta bilan birga yuradi. Samad, Komil, Mannop, Homid ismli yaqin birodarlari ham birga bo‘ladi. Ammo, Saidmurod ko‘ringanidek sadoqatli chiqmaydi. Aksincha, Xolbo‘taga o‘q uzadi, o‘limiga sababchi bo‘ladi. Ular orasidagi sugbatlar ham Saidmurodning qanday qabih inson ekanligini anglatadi.

Shoyim Bo‘tayeov nutqida biz juda kam uchratadigan, va hatto umuman ishlatmaydigan ko‘plab so‘zlar bor. Masalan, ximo, lakot, gumsiyo ... bu qatorni yana davom ettirishimiz mumkin. Ushbu so‘zlar hikoyaga o‘zgacha tarovat va shu davrning madaniy muhitini shakllantirishga yaqindan yordam beradi.

Hikoya so‘nggida Xolbo‘ta vafot etadi. Qora tumanlar tarqaydi. U musaffo osmonga tig‘dek sanchilib turgan qoyaning uchiga subhi kozib vaqtida dafn etiladi. Va bu qabrdan abadulabad hech kimsa xabar topmaydi. Tog‘larga singishib ketadi. Hikoya ana shunday chuqur falsafiy ma’noga ega, uni tushunishda va to‘g‘ri talqin qilishda adabiyotshunoslik metodlarining o‘rni beqiyosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. B.Karimov Adabiyotshunoslik metodologiyasi – Toshkent:2011 B.5
2. Bo‘tayeov Sh.“Shohona sovg‘a” qissa va hikoyalar to‘plami. Toshkent-2023. B-86
3. Qahramonov Q. Badiiy so‘z qudrati.Toshkent – 2024
4. Omanova, M. A. (2023). Perfect human interpretation in alisher navoy's creation. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(1), 346-347.
5. Kalandarova, Dilafuz Abdujamilovna. "Research classification of Karl Reichl." *Current research journal of philological sciences* 2.11 (2021): 29-33.
6. Kadirova M.N. Improvement Of Students' Competences on Folklore Genres in Distance Learning Environment. Nizami Tashkent State Pedagogical University lecturer of the Department of Uzbek language and literature. <https://geniusjournals.org/index.php/ejlat/article/view/410>

⁴ Bo‘tayeov Sh. “Shohona sovg‘a” qissa va hikoyalar to‘plami. Toshkent – 2023. B-86

"TURKIY XALQLAR ADABIYOTIGA DOIR ZAMONAVIY YONDASHUVLAR: MUAMMOLAR, OMILLAR, YECHIMLAR"

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

7. Burxanova, Feruza. "Nazar Eshonqulning ilm-ma'rifat, kitobxonlikka doir qarashlari." *Konferensiyalar/ Conferences*. Vol. 1. No. 12. 2024.
8. Rajabova, Hulkar. "Interpretation of time and space in shorts (Chronotope)(On the example of the stories of the writer Shukhrat Matkarim "Yilon", "Maqar", Kholiyor Safarov "Honor and Life", "Wingless Birds", "The Saddest Joy")." *Modern Science and Research* 4.3 (2025): 1332-1340.
9. 10. Махбуба Қадамбоевна Ўразбаева. АЁЛ ХАРАКТЕРИНИ ОЧИШДА БАДИИЙ НУТҚНИНГ ЎРНИ. GOLDEN BRAIN. RAIN ISSN: 2181-41 20. 23.01.10. 193-199- б. <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/1179>
10. 11. О'РАЗБАЙЕВА Махбуба. XX asr ozarbayjon adabiyotida Ganjaviy obrazi tasviri. "Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an'anasi" mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman materiali. 2024-yil 25-yanvar, 28-32-betlar. https://oriens.uz/media/conferencearticles/5_ORAZBAYEVA_Mahbuba_28-32.pdf